

**Andijon davlat tibbiyot instituti, gospital terapiya
kafedrasi**



Gospital terapiya

Kafedra mudiri dotsent

**SHAXNOZA QADIRJANOVNA
YUSUPOVA**

e-mail: dr-shahnoza@mail.ru

Tel:+998934494050

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI GOSPITAL
TERAPIYA KAFEDRASI TARIXI VA FAOLIYATI**

Andijon davlat tibbiyot institutining Gospital terapiya kafedrasi dastlabki tashkil topgan klinik kafedralaridan biridir. Andijon viloyat klinik shifoxonasi bo`limlarida tashkil topib, o`z faoliyatini boshlagan. Jumladan, Ichki kasalliklar kafedrasi 1958-1959 o`quv yilida terapiya bo`limida tashkil topib, kafedra mudiri vazifasida Moskvadan kelgan t.f.d., professor T.M. Efendiev 1958-1959 yillarda ishlagan. 1959-1964 yillari dotsent SH.R. Rasulov kafedra mudiri etib saylangan. Kafedra dotsentlari t.f.n. M.A. Laufer, G.M. Kleyner, t.f.n., dotsent M. Ziyamxo`jaeva, assistentlar A.G. Sarkisyants, N.V. Soliboev, F.P. Po`latov va boshqalar faoliyat ko`rsatganlar.



Kafedra professori

Q.K. Soliyev

KAFEDRA JAMOASI



1965-1970-yillarda kafedra mudiri vazifasida professor I.F.Fatxullaev ishlagan bo`lsa, 1970-1972-yillarda Moskvada doktoranturani bitirib kelgan akademik I.A. Kassirskiyning shogirdi professor Ulugbek Akbarovich Asqarov saylandi. 1972-1973-yillarda gospital terapiya kafedrasi mudirligi vazifasida dotsent E.N. Konstantinov ishladi. 1974-yilda kafedra mudiri vazifasiga professor Omerev Midat Mamatovich saylandi.

1982-yil sentabr oyidan boshlab gospital terapiya kafedrasi ikkiga bo`linib, I-gospital terapiya va II-gospital terapiya kafedralari nomini oldi. Professor M.M.Omerov va professor S.YU.Tursunov kafedra mudiri etib saylandilar. 1983-yilga kelib ikki kafedradan yana 3-sonli kafedra ajralib chiqib, unga dotsent Mamatbotir Otaxonovich Otaxonov mudir etib saylandi. 1988 yilda yuqoridagi kafedralar negizida, I-II subordinatura kafedrlari va davolash fakultetining gospital terapiya va endokrinologiya kafedrasi tashkil qilindi. Kafedra mudirligiga professor Q.K. Soliev saylandi. 1997-1998 o`quv yilida kafedraga davolash fakulteti ichki kasalliklar kafedrasi maqomi berildi va kafedra mudiri etib professor Mamazoir Axmedovich Xo`jamberdiev saylandi.

Gospital terapiya kafedra tarixida kafedra mudiri lavozimida ishlaganlar quyidagilar:

1. Professor Efendiev Tayfux Musaevich 1958-1959 yillarda;
2. Dotsent Rasulov Shukur Rasulovich 1959-1964 yillarda;

3. Professor Fatxullaev Ismatulla Fatxullaevich 1965-1970-yillarda;
4. Professor Asqarov Ulug'bek Akbarovich 1970-1972-yillarda ;
5. Dotsent Konstantov Evgeniy Nikoloevich 1972-1973-yillarda;
6. Professor Omerov Midat Mamatovich 1973-1983-yillarda;
7. Dotsent Ataxanov Mamatbotir Ataxanovich 1983-1985-yillarda;
8. Professor Soliev Qodirjon Karimovich 1986 -2007-yillarda ;

2007-yil sentabridan hozirgacha (2013) u kafedrani professori lavozimida Q.K. Soliyev ishlab kelmoqda.

1988-yil sentabrdan shu kungacha 2013 yil kafedraning o`quv bazasi klinikaning gematologiya, endokrinologiya, viloyat endokrin dispanseri, Andijon mexanika zavodi poliklinikalarida IV, V va VI kurs davolash va pediatriya fakulteti talabalariga o`quv, ta`lim va tarbiya ishlari olib boriladi. Undan tashqari gematologiya va endokrinologiyadan klinik ordinatorlar tahsil oladilar.

Kafedra mudiri professor Q.K. Soliev boshchiligida 6 nafar dotsent va 8 nafar fan nomzodlari, ko`p yillik ish tajribalariga ega bo`lgan, yuqori malakali assistentlar ishlaydilar. Kafedraning moddiy texnik bazasi zamon talablariga javob beradi.

Kafedrada yetarli darajada o`quv xonalari, ma`naviyat va ma`rifat xonalari, kompyuter xonasi, dotsent va assistentlar xonalari mavjud. O`quv-texnik jihozlaridan quyidagilar bilan ta`minlangan:

1. Kompyuter - 2 ta
2. Televizor - 2 ta
3. Video magnitafon - 1 ta
4. Fotoelektrokolorimetr - 1 ta
5. Elektroforez
6. Mikroskoplar - 2 ta
7. Epidoskop
8. Slaydoskop.

Namoyish etiladigan:

1. Bir necha yuzlab mavzular bo`yicha slaydlar.
2. 10-12 tadan ortiqroq mavzularda o`quv-metodik kassetalar.
3. Lazer disket "Qon kasalliklari".
4. Albom "Qon morfologiyasi" Professor M.G. Abramov
5. Eritrotsitlar arxitektonikasi albomi professor G.I. Kozinets va boshqalar.

Ko`rgazmali o`quv-metodik ishlarni ta`minlash uchun har bir fanlar va darslar uchun bir necha yuzlab slaydlar, jadvallar, o`nlab kassetalar, disketlar va magnet disketlar kafedrada mavjud bo`lib, ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarda keng miqyosida foydalaniladi.

Gospital terapiya va endokrinologiya kafedrasida ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar V - kurs davolash IV, V va II kurs talabarlari bilan olib boriladi. Yana kafedrada harbiy dala

terapiya, kasb kasalliklari va gematologiya fanlari biriktirilgan. Gospital terapiya fanidan asosiy e'tiborni ichki kasalliklar tipik va atipik o'tadigan kasalliklarga va qiyosiy tashxislash va qiyosiy davolash ishlariga katta e'tibor beriladi.

Mavzularni asosan professor Q.K. Soliev, dots. N.E. Yuldashevalar o'qiydilar. Barcha talabalar o'quv ilmiy, ilmiy izlanish ishlariga jalb qilinadi. Predmet fanlari bo'yicha kasallik tarixi va referatlar yoziladi. Jadval, diagrammalar tayyorlashga jalb qilinadi. Kafedra va bo'limda tashkil qilinadigan ilmiy-amaliy konferensiyalarda patomorfologik yig'ilishlarda talabalar assistentlar rahbarligida qatnashadilar, Kafedrada o'quv tarbiyaviy sohada har haftada ma'rifat-ma'naviyat, tibbiyotda va dunyodagi yangiliklar mavzusida konferensiyalar o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar o'quv xonada, palatada bemor bilan, poliklinikada o'tkazilib turli kasalliklar ko'rsatilib, muhokama qilinib ko'rgazmali qurollar bilan talabalarni bilimlari mustahkamlanadi va amaliy ko'nikmalar ko'rsatadilar.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar hozirgi zamon talab darajasida olib boriladi. Talabalar amaliy mashg'ulotlar davrida bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab bormoqdalar.

Amaliy ko'nikmalardan ayniqsa vena ichiga, muskul ichiga, tozalovchi, davolovchi klizmalar, qon guruhlar, rezus faktorlarini aniqlash, gemotransfuziyalarni o'rgatish, suyak ko'mikning funksiyasi, endolyumbal punksiyalarni ko'rsatish va o'rgatish. video-ikkilikda terapiyada murakkab va shoshilinch yordamlarni, harbiy dala terapiyasidan yaralangan askarlarni sog'lomlashtirib safga qaytarish kabi masalalar talabalarga ko'rsatilib, muhokama qilinadi.

Talabalar amaliy mashg'ulotlar davrida klinikani barcha qo'shimcha bo'limlarida ham bo'lib, laboratoriya, sun'iy buyrak anesteziologiya va reanimatsiya (jonlantirish) va intensiv palata va bo'limlarida ham talabalar amaliy ko'nikmalarini mustahkamlaydilar.

Gospital terapiya xodimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari asosan "Irsiy va Ottirilgan eritrotsitopatiyalar, gemoglobinopatiyalar, enzimopatiyalarlarni epidemiologiyasi va ularga alohida yordamlarni tashkil qilish, trombotsitopatiya va har hil anemiya va gemoblastlar, leykozlar alohida davolash va yordamlarini uyushtirish" mavzularida bo'lib professor Q.K. Soliev rahbarligida olib borilib dotsent N.E. Yuldasheva va izlanuvchi Tojiddinov X.S., Yakubbekova M.K., Sotvoldiev B.M lar shug'ullanadilar.

Yana endokrinologiya qismi bo'yicha kafedra mudiri dotsent Yusupova SH.Q ass. D.S. Abdurazzaqovalar nomzodlik dissertatsiyalari sohasida ilmiy-tadqiqot ishlar boshlash rejalashtirigan.

O'tgan yillar davomida 6 ta kandidatlik va 2 ta doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi. Ular quyidagilar:

1. Sattarov D.A. "Geterogenost' beta-talasseмии u detey Andijanskoy oblasti" (1977 g. Moskva). Ilmiy rahbar professor Q.K. Soliev».

2. Tursunov M.U. "Funksional'n'yu izmeneniya krasnoy krovi organov dixaniya i serdtsa pri nasledstvennix i priobretennix eritrotsitopatiyax" (talasseмии i

jedezadefitsitnoy anemii), (1993 g, Moskva). Ilmiy rahbar professor Q.K Soliev va A.G. Marachev.

3. Umurzakova R.Z. *"Vliyanie preparata barbarisa obiknovennogo na trombotsitopoez"* (eksperimental'no klinicheskie issledovanie) (1993 g. Tashkent), Ilmiy rahbar professor Q.K.Soliev prof. G.R. Abduraxmanov.

4. Azimbaev e.A. *"Izuchenie nekotor'x syuron patogeneza, anemii u bol'nogo s zabolevaniem pochek"* (2000 g. Tashkent). Ilmiy rahbar professor Q.K.Soliev.

5. Axmedov B.X. *"Osobennosti ermtrodotsh u jiteley sel'skix rayonov v usloviyax primeneniya postptsidov"* (2000 g. Tashkent). Ilmiy rahbar professor Q.K. Soliev.

6. Sayfutdinova R.SH. *"Otsenka yoddefitsitnoy sostoyaniy sredi jiteley .Andijanskoy oblasti"*. (Tashkent. 2001 y.) Ilmiy rahbar professor L.B.Nugmanova. 2 ta doktorlik dissertatsiyalari.

1.Xusainov K.J. *«Saxarniy diabet v Ferganskoy doline»*.

2.Sattarov D.A. *«Nasledstvenni gemoxromotoz»*. (Moskva)

Hozir kafedrada kafedra mudiri dots.Sh.K. Yusupova, professor Q.K. Soliev dotsent N.E. Yuldasheva, katta o'qituvchilar: X.X. Chartaqova, X.Y. Axmedova, assistentlar: M.A. Abduraxmonova, N.R. Abduvahobova, Toshboev A.B. I.Z. Mirzaaxmedova, X.S.Tojiddinov, M.K. Yaqubbekova, B.M. Sotvoldievlar muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatib kelmoqdalar.